

ONLAYN NASHRNING XUSUSIYATLARI

Madiyarov Babur Allambergenovich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi
madiyarovbabur@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada onlayn media janrlarining xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Internetda klassik media janrlarining ishlashi va turli xil shakllarining paydo bo'lishi haqida so'z boradi. Shu bilan bir qatorda ommabop o'zbek internet nashr yangiliklarining xususiyatlariga alohida e'tibor beriladi. Zamonaviy jamiyatni faol axborotlashtirish uning rivojlanishining eng muhim omili internetdan unumli foydalanish nazarda tutiladi.

Kalit so'zlar: *Onlayn nashrlar, janrlar, onlayn fotoreportaj, internet jurnalistika.*

FEATURES OF ONLINE PUBLICATION

Abstract: This article examines the characteristics of online media genres. Discusses the functioning and emergence of various forms of classic media genres on the Internet. In addition, special attention is paid to the features of the popular Uzbek internet news. Active informatization of modern society is the most important factor in its development, and effective Internet use is assumed.

Keywords: *Online publications, genres, online photo reportage, internet journalism.*

Jurnalistikada yaratilgan butun ma'lumotlar yig'indisi bir qancha tamoyillar asosida janrlarga bo'linadi. "Jurnalistik janri bu integratsiyalashgan ijtimoiy kommunikatsiyalar meta tilining elementi yoki zamonaviy kod, uning yordamida ommaviy axborot vositalaridagi ma'lumotlar shifrlanadi"¹. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalarining g'oyasi aloqa, muloqot va to'g'ridan-to'g'ri axborot aloqalarining o'zaro ta'siri o'z ichiga oladi. Ommaviy axborot vositalari rivojlanishining zamonaviyligi o'ziga xos jihati shundaki, axborot elektron texnologiyalaridagi taraqqiyot jurnalistikaning bu sifatini shu darajada rivojlantirish imkonini beradiki, jurnalist va o'quvchi o'rtasidagi muloqot real vaqt rejimida sodir bo'ladi. Bizga

¹ Калмыков А.А., Коханова Л.А. Интернет-журналистика. – М.: Юнити-Дана, 2005. – С. 8-11.

ma'lumki, eng dolzarb ma'lumotlar na televizorda, na davriy matbuotda, balki Internetda birinchilardan paydo bo'lishiga hechkimga sir emas. Internet axborot olish va almashishning eng tezkor vositasiga aylanibdiki va buning natijasida internet ommaviy axborot vositalari keng rivojlandi. Internet aloqasi infosfera globallashuvining eng yorqin namoyonidir. Bu zamonaviy axborot texnologiyalarining o'ziga xosligini, ularning interfaol tabiatini o'zida mujassam etib, ba'zida muloqotning norasmiylikini nazarda tutiladi².

Zamonaviy raqamli texnologiyalar tomonidan taqdim etilgan axborotni uzatish tezligidan tashqari, materialni chop etish uchun tezkor tayyorlash ham zarur, buni jurnalistning doimiy ravishda so'nggi ma'lumotlarni tahlil qilish va o'quvchilarga taqdim etish uchun eng qisqa va tushunarli janrdan foydalanish orqali amalga oshirish mumkin. Binobarin, birinchi navbatda, onlayn ommaviy axborot vositalarida ishlovchi jurnalist qaytnomalar, informatsion intervyu, reportaj, yozishmalar kabi janrlardan foydalanishdagi vazifasi odamlarga ijtimoiy hayotda qanday harakat qilishga yordam beradi³.

Avvalgi ommaviy axborot vositalarida faoliyat yuritib kelgan muharrirlar onlayn nashrda o'z ishini boshlaganida, shuningdek eng dastlabki internet-jurnalistlari yangi soha uchun o'z nashriy ijodlarini qanday qilib ommaga yetkazish to'g'risida o'ylamadilar. Asosan, vaqt sinovidan o'tgan uslublar va janrlar ishlatilgan ya'ni eslatmalar, hisobotlar, intervyular foydalanib kelishgan. Ko'pgina tahririyatlar veb-versiyalar kichik loyihalar emas, majburiy dastur emas, balki asosiy, allaqachon birlashtirilgan media-biznesni ilgari surish uchun haqiqiy platformalarning zarurligini tushunishni boshladilar. Bu yangi voqealiklar jurnalistlarga tanish bo'lgan klassik janrlarga ham ta'sir ko'rsatdi⁴.

Davriy nashrlarning eng oddiy janridir biri bo'lib, birinchi bor gazetalarda ishlatila boshladi. U siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotdagi yangiliklarni - nima, qaerda, qachon sodir bo'lgan yoki sodir bo'layotganini tez, ifodali va qisqacha etkazish uchun mo'ljallangan.

² Андрианова Н.С. Жанры Интернет-коммуникации: о некоторых подходах [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.nbuu.gov.ua/portal/Natural/Vdpu/Movozn/2008_14/article/3.pdf.

³ Лащук О.Р. Редактирование информационных сообщений: учеб. пособие для студентов вузов. – М.: Аспект Пресс, 2004. – С. 6-11.

⁴ Интернет-СМИ: Теория и практика: учеб. пособие для студентов вузов / Под ред. М.М. Лукиной. – М.: Аспект Пресс, 2010. – С. 252-254.

Eslatma hayotning o'ziga xos faktini va u eng muhim jihatlarini qayd etadi. Shuning uchun bu janr Internetda juda mashhur.

Matnni Internet muhitiga moslashtirishning muhim vazifalaridan biri bu sarlavhalar ustida ishlash bo'lib, ular Internetda bir vaqtning o'zida axborot marketingi va ma'lumot qidirishni optimallashtirishning ikkita funksiyasini bajaradi. Ikkala vazifa ham, bir qarashda, axborotni tarqatish va uni qidirish texnologiyasi kabi turli sohalarga tegishli bo'lsa ham, bir-biri bilan bog'liqdir. Gap shundaki, internet foydalanuvchisi o'zini qiziqtirgan ma'lumotni izlash uchun ko'pincha saytga asosiy manzil bo'yicha emas, balki qidiruv tizimini orqali yoki boshqa saytlardagi havolalar yordamida kiradi. Shuning uchun kalit so'zlar sarlavhalarni yaratishda hal qiluvchi jihat bo'lib hisoblaniladi. Internetdagi sarlavhalarning asosiy maqsadi optimal kalit so'zlar va ularning etarli soni foydalanuvchining talabini to'liq qondirilish, shuning uchun bu erda gazetalarda mashhur bo'lgan metaforalar, idiomalar, aforizmlar va boshqa majoziy ekspressiv vositalardan foydalanish mumkin emas, chunki qidiruv roboti shunchaki ularning ma'nosini tanimaydi.

Onlayn nashrlar tufayli reportaj ma'lumotlarini o'ziga xos usulda ommaga taqdim etilishi uning yana bir bor hayotga kelishiga sabab bo'ldi. Tez nashr qilish imkoniyati, shuningdek, uning har doim yangilanib turushi ushbu "eski" janrni yangi ma'no bilan to'ldirdi. Endi reportajlarni etkazish uchun turli xil media platformalaridan foydalangan holda, voqealarga tom ma'noda jonli efirda olib borish imkoniyati paydo bo'ldi⁵.

Hozirgi paytga kelib ma'lumot tarqatish uchun onlayn nashrlar tufayli birinchi o'ringa chiqadigan Internet-ommaviy axborot vositalaridagi yangiliklar xabarining xususiyatlari haqida to'qtalsak, axborot (yangilik) jurnalistikasi haqida gapirganda, ularning o'ziga xosligi, birinchi navbatda, yangi voqea-hodisalar haqida tezkor xabar yetkaza olishi hisoblanib, eng qisqa vaqt ichida sodir bo'lgan voqea haqida yetarlicha ma'lumotlar yetkaza olishi qayd etish kerak. Jurnalist-axborotchi "matbuot yangiliklari" deb ta'riflangan ma'lumotlarni o'quvchiga birinchi bo'lib taqdim etishga intiladi. Bu axborot jurnalistikasining asosiy farqi va o'ziga xosligi bo'lib, uni ommaviy axborot vositalarining boshqa ixtisosliklaridan ajratib turadi.

⁵ Интернет-СМИ: Теория и практика: учеб. пособие для студентов вузов / Под ред. М.М. Лукиной. – М.: Аспект Пресс, 2010. – С. 252-255.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Калмыков А.А., Коханова Л.А. Интернет-журналистика. – М.: Юнити-Дана, 2005. – С. 8-10.
2. Андрианова Н.С. Жанры Интернет-коммуникации: о некоторых подходах [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.nbuu.gov.ua/portal/Natural/Vdpu/Movozn/2008_14/article/3.pdf.
3. Лащук О.Р. Редактирование информационных сообщений: учеб. пособие для студентов вузов. – М.: Аспект Пресс, 2004. – С. 6-11.
4. Интернет-СМИ: Теория и практика: учеб. пособие для студентов вузов / Под ред. М.М. Лукиной. – М.: Аспект Пресс, 2010. – С. 252-255.
5. <https://www.uz/uz/stat/visitors/ratings>